

KRIPTOVALYUTA FIRIBGARLIGI UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK

Primov Baxtiyor Olim o'g'li

Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,

yuridik fanlar falsafa doktori (PhD)

e-mail: baxti13051993@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8970-9029

Тел: 97 7132333

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22824155>

Received: 12 September 2026 • Accepted: 17 September 2026 • Published: 18 September 2026

Annotatsiya.

Maqolada kriptovalyuta firibgarligi uchun jinoiy javobgarlik masalalari tahlil qilingan. Kriptoaktivlarning O'zbekiston qonunchiligidagi huquqiy maqomi va bunday jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi asosiy muammolar -yagona huquqiy pozitsiyaning yo'qligi, tranzaksiyalarning anonimligi hamda qasdni isbotlash qiyinchiligi ochib berilgan. Muallif tomonidan qonunchilikni takomillashtirish, xodimlar malakasini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar:

kriptovalyuta, kriptoaktiv, firibgarlik, jinoiy javobgarlik, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, blokcheyn, anonimlik, moliyaviy piramida.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va kriptovalyutalarning tarqalishi bilan huquqni muhofaza qilish organlari va sud tizimi uchun yangi qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Kriptovalyutalar foydalanuvchilarga anonim va markazlashtirilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi, bu ularni nafaqat qonuniy operatsiyalar, balki firibgarlik, pul yuvish va boshqa noqonuniy faoliyatlar uchun ham jozibador qiladi.

Biroq, O'zbekiston kabi ko'pgina mamlakatlarda kriptovalyutani tartibga solish mavhumligicha qolmoqda, bu esa jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Kriptovalyuta bilan bog'liq jinoyatlarning asosiy muammolaridan biri aniq huquqiy maqomning aniq emasligidir. O'zbekistonda kriptovalyuta hozirgi kunda qonuniy to'lov vositasi sifatida to'liq tan olinmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2017 yildagi PQ-3150-son qaroriga muvofiq, Kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi tartibga solish maxsus rejimi ("Tartibga solish qumdoni" maxsus rejimi) to'g'risida Nizom tasdiqlangan [1]. Ushbu Nizomning 3-bandiga ko'ra, maxsus rejim doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida kriptoaktivlardan to'lov vositasi sifatida foydalanish yoki to'lovni qabul qilish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 14-iyuldagi 32-son buyrug'i [2] bilan tasdiqlangan Kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi Nizomning 1-bandiga ko'ra, kripto-aktiv -ma'lumotlarning taqsimlangan reestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq deb tan olinadi.

Demak, bu kripto-aktiv ishtirokidagi mulkiy jinoyatlar, xususan, firibgarlik uchun javobgarlikka tortish imkonini beradi (Jinoyat kodeksi (JK) 168-moddasi). Biroq, bu masala

bo'yicha yagona pozitsiyaning mavjud emasligi huquqni muhofaza qilish organlariga to'sqinlik qilmoqda.

Bu yerda asosiy muammo -tranzaksiyalarning anonimligi. Blokcheyn texnologiyasi tomonidan taqdim etilgan anonimlik jinoyatchini aniqlashni qiyinlashtiradi. Tranzaksiyani kuzatish mumkin bo'lsa ham, ma'lum bir kripto hamyonni shaxsga bog'lash jiddiy kuzatuv operatsiyalarini talab qiladi. Bu esa dalillar bazasida bo'shliqlar yaratadi va jinoyatni kvalifikatsiya qilishni murakkablashtiradi.

Keyingi muammo -qasdni isbotlash qiyinligi. Firibgarlik bilan bog'liq ishlarda sudlanuvchining qasdini isbotlash juda muhim. Kriptovalyutaga kelsak, noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslar ko'pincha qonuniy investitsiya faoliyati yoki kriptovalyuta birjalari kabi tashqaridan qonuniy ko'rinadigan murakkab sxemalardan foydalanadilar. Bu firibgarlik va legal doiradagi biznes amaliyotlari o'rtasidagi farqni murakkablashtiradi [3].

Qolaversa, blokcheyn va kriptovalyuta birjalari haqida bilimlarning yetishmasligi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda xatolarga olib kelishi mumkin.

Chet el sudlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, eng keng tarqalgan kriptovalyuta firibgarlik sxemalari quyidagilar:

- soxta investitsiya loyihalari. Tashkilotchilar kriptovalyuta investitsiyalaridan yuqori daromad olishni va'da qilishadi, ammo oxir-oqibat investorlarning pullarini o'zlashtiradilar;
- kriptovalyuta "piramidalari". Ishtirokchilar yangi investorlarni jalb qiladi va to'lovlar keyingi ishtirokchilar tomonidan kiritilgan mablag'lar yordamida amalga oshiriladi;
- Fishing orqali kriptovalyuta o'g'irlanishi. Jinoyatchilar jabrlanuvchilarning kripto hamyonlariga soxta veb-saytlar yoki zararli dasturlar orqali kirish huquqiga ega bo'ladilar [4].

Huquqni muhofaza qilish amaliyotida kriptovalyuta bilan bog'liq jinoyatlar odatda JKning 188¹-moddasi ("Pul mablag'larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat") bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, fishing yordamida kriptovalyuta o'g'irlash holatlarida sudlar kriptovalyutani mulk, noqonuniy harakatlarni esa o'g'irlik deb tan oladi.

Bunda, ba'zi hollarda bahsli vaziyatlar kelib chiqadi. Masalan, agar jabrlanuvchi piramida sxemasi tashkilotchisiga ixtiyoriy ravishda mablag' o'tkazgan bo'lsa va oxirgisi o'z majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, jinoiy yoki fuqarolik javobgarligi borasida nizo kelib chiqishi mumkin.

Misol uchun, kriptovalyuta "piramidasi" ni yaratish bilan bog'liq ishda tashkilotchilar investorlarga 200% daromad keltirishni va'da qilishdi, ammo mablag'lar sxemaning "erta" ishtirokchilariga to'lash uchun ishlatilgan. Bunda tashkilotchilarning harakatlari JKning 188¹-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Yana bir misol, xakerlik hujumiga uchragan kriptovalyuta birjasi bilan bog'liq. Hujumchilar foydalanuvchilarning kripto hamyonlariga kirish huquqini qo'lga kiritishadi va kriptovalyutani o'z hisoblariga o'tkazishadi. Bunda kriptovalyutani mulk sifatida, jinoyatchilarning harakatlarini esa axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'g'irlik deb tan olish zarur (JK 169-modda).

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar o'rinli ko'rinadi.

Birinchidan, kriptovalyutani tartibga solishga yagona yondashuvni ishlab chiqish. Qonunchilikda kriptovalyutaning huquqiy maqomini aniq belgilash juda muhim, bu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishni soddalashtiradi va jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining malakasini oshirish – masalan, kriptovalyutalar va raqamli texnologiyalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan kurslar orqali o'qitish lozim.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlik. Kriptovalyuta operatsiyalarining global xususiyatini hisobga olgan holda, jinoyatlarni kuzatish va oldini olish uchun xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlardagi huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, kriptovalyuta bilan bog'liq jinoiy holatlar tobora keng tarqalmoqda, bu esa davlat va jamiyatdan ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish uchun yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq muammolar va sud

amaliyotining deyarli mavjud emasligi huquqni muhofaza qilish organlarida jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Biroq, nazarimizda, qonunchilikni takomillashtirish, professional tayyorgarlikni oshirish va xalqaro hamkorlik kriptovalyuta firibgarligiga qarshi samarali kurashishga hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 йилдаги ПҚ-3150-сон // <https://lex.uz/docs/3280183>.
2. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining buyrug'i, 15.08.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3380 // <https://lex.uz/ru/docs/6158224?ONDATE=15.08.2022&ONDATE2=08.05.2024&action=compare>.
3. Рукавишникова Г. А. Актуальные проблемы и особенности определения статуса криптовалюты в механизме преступления // Многополярный мир в фокусе новой действительности. Материалы XIII Евразийского экономического форума молодежи. Уралский государственный экономический университет. Екатеринбург, 2023. С. 65-67.
4. Епифанов С. А. Криптовалюта как предмет и средство совершения преступлений // Актуальные вопросы современной науки и образования. Сборник статей XXXI Международной научно-практической конференции. В 2 ч. Пенза, 2023. С. 55-57.